



IJODKOR INDIVIDUAL USLUBINING BADIY PSIXOLOGIZMNI QO‘LLASHDAGI O‘RNI

Moxira Sadullayeva,
f.f.f.d., dotsent,
Qoraqalpoq davlat universiteti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207043>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijodkor individual uslubining tadrijiy takomili, psixologizmning yozuvchi uslubidagi o‘ziga xosligi, badiiy ijod va ijodiy jarayon, badiiy asarning dunyoga kelishida, ijtimoiy-ma’naviy va psixologik hodisalarning ta’siri, ijodkor - badiiy asar - kitobxon konsepsiyasi kabi qator masalalar yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar keltirilgan. Shuningdek, ijodkorning psixologik tasvir o‘ziga xosligi, uning badiiy-estetik vazifasi, hikoya syujeti tadrijida muallif mahorati qirralari, uslub individualligi kabi masalalar iste’dodli yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning ijodi, ayniqsa, muallif qalamiga mansub “Qaytish” hikoyasi orqali tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: ijodkor, uslub, ijodkorlik, pozitsiya, ma’naviy komillik, syujet, ruhiy holat, badiiy psixologizm.

Ijodkorning shaxs sifatidagi siymosi, iste’dodi, uning estetik pozitsiyasi ijod jarayonida namoyon bo‘ladigan adabiy jarayondir. Adabiyotshunoslikda ijodiy jarayon va ijodkor shaxs tushunchalarining kelib chiqish ildizlari uzqo tarixiga borib taqaladi. Insondagi erk va ozodlikka bo‘lgan tashnalik uni ijod qilish ishtiyoqini tug‘dirdi. Ijodiy jarayon adabiy-estetik, falsafiy-psixologik omillariga ko‘ra ko‘p qirralidir. Sharqda shaxsning komillik belgisi faqat ijtimoiy-siyosiy mezonlar asosida belgilanmagan, balki uning ma’nan barkamolligi, komil inson konsepsiyasining asosi hisoblangan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Xorazmiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, So‘fi Olloyor, Mashrab, Bobur kabilar ijodida ana shu ma’naviy komillik, komil inson haqidagi asarlari, obrazlar talqinini uchratish mumkin.

G‘arb falsafasida esa shaxsning shakllanishi va takomili ko‘proq ijtimoiy muhit bilan bog‘liqlikda sanalgan. Qadimgi grek faylasufi Demokritning fikricha: “Haqiqiy va ko‘p qirrali donolik haqiqiy baxtga eltadi. Donolik uchta hosil keltiradi. Ular yaxshi fikrlash, yaxshi so‘zlash, yaxshi harakat qilishdir. Birinchisi ruhiy tetiklikni ta’minlaydi. Yaxshi fikrlash, demak narsalar haqida to‘g‘ri hukm chiqarishdir. Ikkinchisi samimiylik, haqqoniylikdan iborat “So‘z ishning g‘oyasidir”. Uchinchi donishmandlik bo‘lib, u amaliy ezgulikni hosil qiladi”[1:40]. Platon uchun esa shaxsning eng oliy fazilati bu – oqillik deb qaralgan[1:40].

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Ijodkor shaxs o‘zini o‘rab turgan olam, ilohiy, ma’naviy, ijtimoiy, falsafiy, milliy va umuminsoniy muhit ta’siridan holi tarzda o‘zligini namoyon eta olmaydi. Muayyan badiiy asarning yaratilishida shubhasiz ijodkorga turtki bergan, uni ijodiy jarayonga undagan bir qator ichki va tashqi omillar mavjud. Bunga tashqi omil sifatida ijtimoiy hayot va unda ro‘y berayotgan voqea va hodisalar, ichki omil sifatida ijodkor “men”idagi ruhiy evrilishlar, kechinmalar, ichki ta’sirlanish va hokazolar orqali ijodga bo‘lgan intilish, ya’ni ilhomning paydo bo‘lishi nazarda tutiladi.

Binobarin, badiiy ijod va ijodiy jarayonga, badiiy asarning dunyoga kelishida, ijtimoiy-ma’naviy va psixologik hodisalar, uning barcha qirralari ijod jarayonining faol bo‘lishida ikkala omil ham birdek ta’sir o‘tkazadi. Ijodkor –badiiy asar-kitobxon konsepsiyasini bog‘lovchi mustahkam bir mexanizmga aylanadi. “Shunga ko‘ra, yozuvchi asarlarini uning shaxsiyati, biografiyasi, ruhiy- psixologik holatlari, oila muhiti, ijtimoiy doirasi, xususan, shu asosda shakllangan adabiy-estetik qarashlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yozuvchining: a) ijod jarayonida shaxs darajasiga ko‘tarilishi, o‘zligini anglashi; b) oddiy odamlardan farqlanuvchi ichki intuitsiyaga egaligi; v) ilhom jarayonlarini to‘g‘ri anglab, uni to‘g‘ri tarbiyalashi natijasida shaxs va ijod uyg‘unligi maydonga keladi. Ijodkorning aniq va mukammal estetik qarashlari shakllanadi”[2:14].

So‘z san’ati maydonida shunday ijodkorlar borki, ular o‘z shaxsiyatida ijodkorlik bilan olimlikni, o‘rni kelganda esa munaqqidlikni bir butun hodisa sifatida namoyon qiladilar. Ularda odam va olamni anglash va badiiy-mantiqiy qayta yaratish, har qanday voqelikka munosabatda ongli yondashuv, ilmiy va badiiy xulosa chiqara olish, ularni bir chiziqda uyg‘unlashtira olish mahorati yaqqol sezilib turadi. Ana shunday serqirra ijodkorlardan biri Ulug‘bek Hamadamdir. Iste’dodli ijodkor nasr va nazm maydonida birdek qalam tebratibgina qolmasdan, ayni paytda bu ijodiy yo‘l bilan olimlikni ham bir butunlikda olib borayotgan tal’ant egasidir. To‘g‘ri, adib ijodining ko‘pgina qismini nasriy asarlar, jumladan, roman, qissa, hikoyalar tashkil etsada, uning she’riyatga oshnoligi, nafis va go‘zal tuyg‘ular bilan sug‘orilgan nozik she’rlarni yaratish bilan bir qatorda, she’riyat sirlarini, uning shakl-shamoyili, mohiyat hodisalarini g‘oyatda o‘tkir va chuqur tahlil va talqin etuvchi olim sifatida e’tirof etilgan tanqidshunos hamdir.

Nafaqat she’riyat, balki ijodiy davra, adabiy suhbat va bahs-munozaralarda hozirgi adabiy jarayonning har bir janriga o‘zining adabiy-estetik qarashlari bilan munosabat bildirishida namoyon bo‘lmoqda. Va bu davralardagi ishtiroki uning so‘zni nihoyatda teran his qilishi, adabiy jarayonga xolis va haq yondashishi,

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



zamonaviy va jahon adabiyoti durdonalarining, ayniqsa, modernizmning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni masalasi kabi muammolarini jiddiy kuzatuvchi va talqin mushohada etuvchi olim sifatidagi siyratlari aks etadi. “Agar Ulug‘bek Hamdam ilmiy, adabiy-estetik qarashlarining asosini kuzatadigan bo‘lsak, eng muhim ijodiy prinsiplaridan biri sifatida badiiy asar qanday usulda, qanday “izm”da – (xoh realistik, xoh modernistik) yaratilgan bo‘lmasin asosida, albatta, katta hayotiy haqiqatlar yotishi lozimligi, realizm badiiy adabiyotning asosidir, degan qarashlar ustuvorligini ko‘rishimiz mumkin”[3;59].

Ta’kidlash joizki, U.Hamdamning butun ijodi, qanday ijodiy metodka yaratilishidan farqli holda, uning asl mohiyatda katta hayotiy haqiqatlar, inson qalb kechinmalarining turfa xil tovlanishlari aks etganligini ko‘rish mumkin. Bu hol, ayniqsa, yozuvchining realistik asarlarida, hikoya, qissa va romanlarida yanada yaqqol ifodasini topgan. Ushbu ilmiy-badiiy uyg‘unlik hatto asarlarining nomlarida ham o‘z ifodasini topgan. Jumladan, adabiy jarayonda ijobiy kutib olingan “Muvozanat”, “Sabo va Samandar”, “Isyon va itoat” kabi romanlari yoki “Bir piyola suv”, “Pillapoya”, kabi hikoyalar nomlanishida ham ilmiy-falsafiy va majoziy mantiqqa asoslanish yetakchilik qiladi. Adib romanlari va ko‘plab hikoyalarida hayot voqe‘ligi realistik yo‘sinda ifoda etilsa, ramziy-majoziy mazmunga ega qissa va hikoyalari asosida ham hayotiy pafos va motivlar talqini yetakchilik qilishi ko‘zga tashlanadi.

“San’atkor asarining betakrorligini ta’minlaydigan asosiy omil muallif mahoratining o‘ziga xosligidir. Ana shu o‘ziga xoslikni ta’minlovchi unsurlar yig‘indisi ijodkor uslubini tashkil etadi. Ma’lumki, o‘ziga xoslik tinimsiz ijodiy izlanishlar, katta hayotiy va badiiy tajriba, mashaqqatli mehnat natijasida shakllanadi. Uslubiy o‘ziga xoslik mavzu tanlashda ham, uni aks ettirish yo‘sinida ham namoyon bo‘ladi”[4:23].

Adib ijodining, u yaratgan asarlarining o‘ziga xosligi, ya’ni boshqalardan farq qiluvchi tomonlari, o‘zgacha shakl izlashi va shu shaklda ifodalashi, bayon qilishda o‘ziga yozuvchilarni takrorlamagan holda betakror ramzlarga, turfa xil poetik topilmalarga (masalan, tush, xayol, yo‘l, tabiat unsurlari – yomg‘ir, daraxt, tosh, suv va h.k.) murojaat etishidadir. Bu kabi holatlar, yozuvchi asarlarining originalligini, obrazli va ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. Badiiy asar, muallif uchun, aynan shu ijodkorning vujudiga sig‘mayotgan ruhiy po‘rtanishlar, qalbidagi ezgu niyatlarini, boshqalarga oshkora aytolmaydigan kechinma va o‘ylarini tasvirlash uchun bir imkoniyatdir. Yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning hikoyalarida ana shu hol



yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida so‘z yuritilayotgan voqea-hodisalar ayni yozuvchi hayotining in’ikosidek. “Adabiyotshunoslikda psixologizm bir tomondan badiiy asarlardagi qahramonlar ruhiyatini tadqiq qilsa, ikkinchi tomondan badiiy asar ijodkorning ruhiy olamiga, badiiy asarni o‘qiyotgan kitobxonning ma’naviy-ruhiy dunyosiga e’tibor beradi. Shu bois psixologik tahlillar biografik metod tajribalariga ham tayanadi”[5:184]. Demak, asarda psixologik holatni mukammal chiqishida yozuvchining hayoti bilan bog‘liq holda talqin etish to‘g‘ri va muhim jarayon hisoblanadi. “Har qanday ijod namunasi muallif shaxsiyati bilan bir butunlikda o‘rganilishi lozim”[6:55] degan fikrda ham ma’lum bir haqiqat bor.

Muallif qalamiga mansub “Qaytish”[7:196] hikoyasida ham uning ijodiy-individual xosliklarini ko‘rish mumkin. Hikoyada adibning hayot va o‘lim haqidagi tasavvurlari, olamni anglash, yashash ishtiyoqi, hayotga muhabbat kabi falasafiy qarashlari aks etgan. Bu ham bejizga emas, boisi hikoya yozilgan vaqt yozuvchining o‘rta yosh davriga mansubdir. Ayitsh joizki, ijodkorning yoshi ulg‘aygan sari uning o‘y-fikrlari, dunyoqrashi ham ulg‘ayadi, asarlarida ham hayot va undagi haqiqatni anglash borasidagi mulohazalari o‘ziga xos tarzda aks eta boshlaydi. Adib cho‘kib qolgan insoning qayta tirilishi, hayotga qaytishi, yashashga ishtiyoqi uyg‘onishini va bu orqali undagi psixologik holatni maromiga yetkazib tasvirlagan.

Xullas, V.Belinskiyning ijodkorlarga nisbatan “inson ruhiyatining buyuk rassomi” deya qo‘llagan iborasini, aynan serqirra ijodkor Ulug‘bek Hamdam ijodiga nisbatan qo‘llash o‘rinlidir. Chunki yozuvchi ijodidagi ijodkorlik konsepsiyasining asl mohiyatini “o‘zligini anglash, ko‘ngil manzaralarini chizish” kabi mavzular qamrab oladi. Yuqoridagi birgina hikoyadagi psixologizmning betakror qo‘llanilishi buning yorqin isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев С. ва б. Қадимги давр Фарбий Европа фалсафаси. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 40.
2. Бурханова Ф. Муаллиф адабий-эстетик қарашлари ва ижодий параллелизм (Назар Эшонқул ва Улуғбек Ҳамдам ижоди мисолида): Филол. фан.фалсафа. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2019. 14-б.
3. Қахрамонов Қ. Адабий жараён ва эстетик талқин. –Тошкент: ТДПУ, 2014. –Б.59.
4. Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қаҳрамон руҳиятини тасвирлаш тамойиллари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 23 б.;
5. Карим Б. Руҳият алифбоси. – Т.: Фафур Ғулум номидаги НМИУ, 2018. 184-б.
6. Жўракулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006.– Б. 10-55.
7. Хамдамов У. Тўлин ой қиссаси. – Т.: О‘zbekiston, 2017. 196-б.